

N-870

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI



**Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami.
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining
ish faoliyatini tashkil qilish**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOY UNIVERSITETI**

Nuritdinova P.Sh., Hakimova X.X, Israilova S.B, Dustova G.K





**BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA YORDAMI.
AMBULATORIYA-POLIKLINIKA MUASSASALARINING ISH
FAOLIYATINI TASHKIL QILISH**

O'quv uslubiy qo'llanma

O'quv qo'llanma Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ilmiy Kengashining 27-sentyabr 2023-yilda bo'lib o'tgan yig'ilishidagi "2"- son bayonnomasiga ko'ra tasdiqlanib, chop etishga ruxsat berilgan.

Tibbiyot universiteti talabalari va o'qituvchilari uchun amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan o'quv uslubiy qo'llanma



Tuzuvchi:

Nuritdinova P.Sh., Hakimova X.X, Israilova S.B, Dustova G.K -
jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedراسi
o'qituvchilari

Taqrizchilar:

Aminov Z. Z - jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti
kafedراسi mudiri


Annotasiya: Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish, OSh ishini tashkil qilish, OSh asosiy vazifalari, ish faoliyatining tahlili, oilaviy poliklikaning ish faoliyati, asosiy vazifalari, ish usuli, hisobiy va hisobot hujjatlarni yuritish xususiyatlari qoidalari keltirilgan. Bu usullardan tibbiyot amaliyotida foydalanishning afzalliklari yangi pedagogik usullarda tushuntirilgan. Ushbu mavzu bo'yicha nazorat savollari va mustaqil ish uchun topshiriqlar taklif etiladi. Qo'llanma tushunarli va qiziqarli bo'lishi uchun rasmlar, diagrammalar, jadvallar va misollar bilan boyitilgan. Talabalar, rezidentlar, magistrantlar, tadqiqotchilar va fan o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

O'quv uslubiy qo'llanma Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi hamda nashrga ruxsat berildi.


2023 yil « 27 » sentabr

Bayonnoma № 2

Ilmiy Kengash kotibi



Ochilov U.



MUNDARIJA

Kirish	4
Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini yanada isloh qilishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:	6
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish ...	9
Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil etish	10
Qishloq oilaviy shifokor punkti	11
Oilaviy poliklinika ishini tashkil etish	15
Mavzuga doir test savollari:	37
Foydalanilgan adabiyotlar	42

Kirish

Birlamchi tibbiy sanitariya yordami (BTSYo), tibbiy sanitariya xizmatining muhim shakli bo'lib, aholi va mamlakatning imkoniyatlaridan kelib chiqib, aholining, jumladan har bir insonning faol ishtirokida uning ehtiyojiga ko'ra ko'rsatiladigan kerakli va muhim yordam hisoblanadi. Aholini birlamchi tibbiy sanitariya yordami bilan ta'minlash davlat siyosati va taktikasi bo'lib,

mamlakat rivojlanishining har bir bosqichida, ijtimoiy adolat ruhida aholiga iloji boricha yashash va ish joyiga yaqin joyda, jamoatchilikning barcha kuchlari yordamida ko'rsatiladigan sog'liqni saqlash chora-tadbirlardir. Davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari, ijtimoiy ta'minot hamda, jamoa birlashmalari tomonidan ko'rsatiladigan BTSYo tibbiy xizmatning asosiy va bepul turi hisoblanadi va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- Eng ko'p tarqalgan kasalliklar, jarohatlanishlar va boshqa noxush holatni davolash;
- Sanitariya–gigiyena, epidemiyaga qarshi tibbiy profilaktik tadbirlarni o'tkazish;
- Oilani, onalik va bolalikni muhofazalash, yashash joyi bo'yicha tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa tadbirlarni o'tkazish.

BTSYo aholiga ambulatoriya – poliklinika muassasalarida, QOSHPda, shoshilinch tibbiy yordam markazlarida, tug'ruqxonalarda va shifoxonalarda murojaat etilganda ko'rsatiladi. BTSYo ko'rsatishning yetakchi zvenosi bo'lib, umumiy (oila)amaliyot vrachi xizmati hisoblanadi. Tibbiy xizmatning birinchi zvenosida bemor birinchi marotaba oilaviy shifokor bilan muloqatda bo'ladi va o'zining sog'lig'i bilan bog'liq muammolarini hal etish uchun murojat qiladi. Umumiy amaliyot shifokorining asosiy maqsadi har bir insonga, oilaga, shuningdek jamoaga doimiy va har tomonlama tibbiy yordam ko'rsatishdir.

Oilaviy poliklinika, o'ziga biriktirilgan xudud aholisining kasalliklarini kamaytirish bo'yicha sog'lom aholi guruhini va bemorlarni dispanser nazoratiga olishga, bemorlarga malakali tabbiy yordam ko'rsatishga, keng ko'lamdagi profilaktik chora tadbirlarni olib borishga mo'ljallangan davolash profilaktika muassasasidir. Oilaviy poliklinika aholiga tibbiy xizmatni oila territorial prinsipida ko'rsatadi.

Mavzuni asoslash:

Tibbiy yordamning asosi ko'pgina mamlakatlarda oila vrachlaridir. Tibbiy texnologiya rivojlanib brogan sayin birlamchi tibbiy sanitariya yordami (BTSYO) sohasida ixtisoslashtirish zaruriyati yuzaga keldiki, bu narsa asta -sekin oila vrachlarining sonini qisqartirib, ularning rolini kamaytirib qo'ydi. Umumiy amaliyot shifokorining asosiy maqsadi har bir insonga, oilaga, shuningdek jamoaga doimiy va har tomonlama tibbiy yordam ko'rsatishdir. Ko'pgina mamlakatlarda BTSYO terapevtik yoki ixtisoslashtirilgan vrach yordamidan ko'ra ko'proq narsani o'z ichiga oladi, degan tushuncha asta-sekin paydo bo'lib bordi.

Jamoa ehtiyojlariga yo'naltirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami-jamiyat sog'lig'ini saqlashdagi yondashuv bo'lib, jamoa epidemiologiyasi va tegishli tibbiy xizmatni, ustuvor faoliyatni belgilash asosida, bir-biriga bog'laydi.

Mashg'ulotning maqsadi va shakllanishi lozim bo'lgan ko'nikmalar va bilimlar:

Maqsad – talabalarga ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish, OSh ishini tashkil qilish, OSh asosiy vazifalari, ish faoliyatining tahlili, oilaviy poliklikaning ish faoliyati, asosiy vazifalari to'g'risida tushuntirib berish.

Mavzuni o'rganib chiqqandan so'ng, talabalar bilishlari kerak:

1. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining, OSh ish faoliyatini, oilaviy poliklikaning ish faoliyatini tashkil qilish va uning vazifalari.
2. Tarbiyaviy maqsadlar: Mashg'ulot talabalarda bo'lg'usi kasbini puxta egallash yo'lida mas'uliyatlilik, intiluvchanlik va ilmiylik xususiyatlarini yanada rivojlantiradi.

Ko'rib chiqiladigan masalalar tartibi:

- ✓ Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini yanada isloh qilishning asosiy yo'nalishlari
- ✓ Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish
- ✓ Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil etish
- ✓ Qishloq oilaviy shifokor punkti
- ✓ Oilaviy poliklinika ishini tashkil etish
- ✓ Oilaviy poliklikaning birlamchi tibbiy hujjatlari

Mashg'ulotni o'tkazish joyi va material ta'minlanishi:

- testlar to'plami;
- uslubiy qo'llanmalar;
- mavzu bo'yicha o'rgatuvchi dastur.

Mavzuning mazmuni

Tibbiy yordamning asosi ko'pgina mamlakatlarda oila vrachlaridir. Tibbiy

texnologiya rivojlanib borgan sayin birlamchi tibbiy sanitariya yordami (BTSYO) sohasida ixtisoslashtirish zaruriyati yuzaga keldiki, bu narsa asta sekin oila vrachlarining sonini qisqartirib, ularning rolini kamaytirib qo'ydi. Umumiy amaliyot shifokorining asosiy maqsadi har bir insonga, oilaga, shuningdek jamoaga doimiy va har tomonlama tibbiy yordam ko'rsatishdir. Ko'pgina mamlakatlarda BTSYO terapevtik yoki ixtisoslashtirilgan vrach yordamidan ko'ra ko'proq narsani o'z ichiga oladi, degan tushuncha asta-sekin paydo bo'lib bordi.

Jamoa ehtiyojlariga yo'naltirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami

jamiyat sog'lig'ini saqlashdagi yondashuv bo'lib, jamoa epidemiologiyasi va tegishli tibbiy xizmatni, ustuvor faoliyatni belgilash asosida, bir-biriga bog'laydi.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimini yanada isloh qilishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

➤ birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tizimini kasalliklarning oldini olish, aholi o'rtasida profilaktika va patronaj ishlariga qayta yo'naltirish. Faoliyat samaradorligining asosiy mezoni sifatida xizmat ko'rsatish hududida qatnov va davolangan bemorlar sonining kamayishi ko'rsatkichlari o'miga aholining shifoxonada davolanishi, kasallanish va nogironlik darajasini pasaytirish ishlariga o'zgartirish;

➤ qishloq oilaviy shifokor punktlari (bundan buyon — QOSHP), oilaviy va ko'p tarmoqli poliklinikalarda xizmat ko'rsatish vaqtini soat 8:00 dan 20:00 gacha uzaytirish hisobiga aholi uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan foydalanish imqoniyatini kengaytirish, ularda tunukun davomida mobil ishlaydigan, yaxshi jihozlangan tez yordam podstantsiyalarini tashkil etish va foydalanish;

➤ fertil yoshidagi va homilador ayollar, bolalar, shuningdek o'zgalar yordami va ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz keksalar, nogironlar, surunkali kasallikka chalingan va boshqa shaxslar o'rtasida patronaj ishlarini muntazam olib borishni tashkil etish;

➤ qishloq aholisi, shu jumladan, bevosita ularning turar joylarida profilaktik ko'ruvlar, laboratoriya klinik-biokimyoviy va instrumental (UTT, EKG va boshqa) tekshiruvlarni olib borish, kasalliklarni erta

aniqlash va ularning surunkali holga o'tishiga yo'l qo'ymaslik tizimini yaratish;

➤ qishloq aholisiga bevosita QOSHP va poliklinikalarda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar hajmini tuman darajasida, Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlar hamda tibbiyot oliygohlari klinikalari tomonidan ixtisoslashgan xizmatlar tizimini yaratishda amaliy yordam berishni tashkil etish orqali kengaytirish;

➤ QOSHP va poliklinikalar moddiy-texnik bazasini zarur diagnostika va davolash jihozlari, shu jumladan tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun mobil brigadalarni joylashtirish hisobiga mustahkamlash;

➤ QOSHP va poliklinika shifokorlarining malakali faoliyatini ta'minlash uchun, shu jumladan ularni klinik protokol, tibbiy adabiyot, me'yoriy hujjatlardan foydalanish imqoniyatini ta'minlash, birlamchi tibbiy hujjatlarni maqbullashtirish va elektron shaklini bosqichma-bosqich joriy etish hisobiga yetarli shart-sharoitlar yaratish;

➤ qishloq oilaviy shifokor punktlari va poliklinikalar shifokorlarini uy-joy va transport vositalari bilan ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining QOSHPlar tarmog'ini maqbullashtirish to'g'risidagi quyidagilarni ko'zda tutuvchi taklifi 1-ilovaga muvofiq amalga oshirish yo'lga qo'yilgan:

➤ QOSHPlar sonini 2 985 tadan 1 612 tagacha qisqartirish va 793 ta QOSHPlar negizida kunduzgi statsionari mavjud bo'lgan qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish;

➤ tashkil etiladigan qishloq oilaviy poliklinikalarining hududlarida aholi uchun arzon va sifatli dori vositalari hamda tibbiy buyumlar sotuvini yo'lga qo'yadigan «Dori-darmon» AK tizimining dorixonalarini joylashtirish;

➤ qisqartirilayotgan qishloq oilaviy shifokor punktlari negizida yangi 441 ta podstantsiyalarni tashkil etish orqali qishloq joylardagi tez tibbiy yordam tarmog'ini kengaytirish;

➤ faoliyati tugatilayotgan 658 ta QOSHP binolarini QOSHP va poliklinika shifokorlari uchun xizmat uy-joyi sifatida foydalanishga topshirish;

➤ qishloq oilaviy shifokor punktlarining yuridik shaxs maqomini tugatish va ularga moliyaviy-buxgalterlik xizmati ko'rsatishni tegishli tuman tibbiyot birlashmalari zimmasiga yuklash.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari

O'quv uslubiy qo'llanma

bilan birgalikda bir oy muddatda tugatilayotgan QOSHPlar tomonidan ilgari xizmat ko'rsatilgan aholini optimal joylashgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalariga biriktirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilsin:

➤ birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar haqida aholini xabardor qilish;

➤ qayta biriktirilayotgan aholi uchun malakali tibbiy yordamni tashkil etish;

➤ tugatilayotgan QOSHPlarning tibbiy asbob-uskunalari va boshqa mol-mulkining saqlanishi, o'tkazib berilishi va samarali foydalanilishini ta'minlash;

➤ maqbullashtirilishi natijasida bo'shaydigan QOSHPlar xodimlarini ish bilan ta'minlash;

➤ sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'ini muassasalarini qo'shimcha biriktiriladigan aholi sonini hisobga olgan holda o'z vaqtida moliyalashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi va Mehnat vazirligi bilan birgalikda:

➤ qishloq oilaviy poliklinikalari va qishloq oilaviy shifokor punktlarida faoliyat ko'rsatadigan tibbiyot xodimlarini xizmat uy-joyi bilan ta'minlash;

➤ davlat granti asosida ta'lim olgan tibbiyot oliy o'quv muassasalari bitiruvchilarini qishloq oilaviy shifokor punktlari va qishloq oilaviy poliklinikalariga 3 yildan kam bo'lmagan muddatga ishlab berish uchun yo'llash;

➤ qishloq oilaviy poliklinikalari va qishloq oilaviy shifokor punktlari patronaj hamshiralarining yo'l haqi kompensatsiyasini belgilash va to'lab berish tartibi to'g'risidagi Nizomlarni ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda 2017 yilning 1 iyulidan tuman, viloyat va respublika miqyosidagi muassasalarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan bemorlarni ko'rikdan o'tkazish va davolashni nazarda tutuvchi tartibni ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi va Mehnat vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda 2017 yilning 1 oktyabridan boshlab, kunduzgi statsionari mavjud bo'lgan qishloq oilaviy poliklinikalari va qishloq oilaviy shifokor punktlari faoliyatini reyting tizimida baholash hamda ular tomonidan aholiga ko'rsatilgan tibbiy xizmat

ko'lamini va sifatini baholash asosida tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqilgan va unda qo'yidagilar belgilangan:

➤ ushbu qarorda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni bajarish amaldagi xodimlar shtat birligi va qishloq oilaviy shifokor punktlarini ta'minlash uchun ajratilgan byudjet mablag'lari doirasida amalga oshiriladi;

➤ qishloq oilaviy shifokor punktlari tarmog'ini maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan mablag'lar qishloq oilaviy poliklinikalari va vrachlik punktlari tibbiyot xodimlarini rag'batlantirish, shuningdek, sog'liqni saqlash muassasalarining dori vositalari va tibbiy buyumlar, reagentlar, sarflov materiallari va transport vositalari bilan ta'minlanish darajasini yaxshilashga yo'naltiriladi.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ish faoliyatini tashkil qilish

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari birinchi marta shaharlarda, tuman va viloyat markazlarida tashkil etilgan bo'lib, aholining qatnab davolanishi va uyda tibbiy yordam olishi uchun mo'ljallangan. Ambulatoriya va poliklinika xizmati sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rinni egallaydi. Birinchidan, ambulatoriya va poliklinikalar eng ommaviy va aholi uchun eng yaqin tibbiyot muassasalaridan biri bo'lib, unda yiliga 80% dan ortiq aholi tibbiy yordam oladi. Ikkinchidan, bunday muassasalarda ishlovchi vrachlarning faoliyati juda katta profilaktik ahamiyatga ega (barvaqt tashxis qo'yish, yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish va boshqalar). Uchinchidan, ambulatoriya va poliklinikalarning faoliyati boshqa tibbiyot muassasalarining ishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Poliklinikaning ish sifati, ayniqsa, kasalxonalarining faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, poliklinikada bemorlarga qanchalik o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yilib, shifoxonaga yuborilsa, ularning shifoxonada davolanish muddati qisqaradi, kasallikdan xalos bo'lishi tezlashadi. Poliklinikalarda kasalliklar (bemorlar) qancha erta aniqlansa va malakali, sifatli davolansa, ularning kasalxonalarda davolanishga bo'lgan ehtiyoji shuncha kamayadi. Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining ishini yanada yaxshilash uchun qo'yidagilarga katta ahamiyat berilishi lozim.

1. Kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash.

2. Aholiga kerakli davolash-sog'lomlashtirish yordamini ko'rsatish, ularni tizimli dispanserizatsiyadan o'tkazish.

3. Ambulatoriya va poliklinikalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

4. Poliklinikalar faoliyatida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga, kasalliklarni keltirib chiqaruvchi xavf omillari guruhlarini aniqlashga katta ahamiyat berish.

5. Ambulatoriya-poliklinika xizmatini yanada yaxshilash va ishini takomillashtirish maqsadida poliklinika, tez tibbiy yordam va kasalxonalar o'rtasidagi uzviy bog'lanishni yanada rivojlantirish.

Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil etish

Tibbiyot xodimlarini oldida qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, uni rivojlantirish, sifatli va yuqori darajadagi tibbiy yordamni tashkil qilish, kasallik ko'rsatkichlarini, nogironlikni kamaytirish va ishga layoqatlilikni oshirishdek katta vazifalar turibdi.

Hozirgi paytda qishloq aholisining sog'lig'ini saqlash va sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlashni yaxshilash borasida QOSHPlar, poliklinika va ambulatoriyalarni, tez yordam stantsiyalarini va bo'limlarini yetarli darajada sifatli va mukammal bilimga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar, moddiy texnika bazalari bilan ta'minlash borasida zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qishloqdagi ijtimoiy sharoitlarning birmuncha pastligi, ekologik sharoitlarning odamlarga salbiy ta'sirining oshganligi, aholining tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlarining oldiga yanada kattaroq mas'uliyatlar yuklash bilan birga, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatayotgan tibbiyot muassasalarini tashkil qilish va ularning tarkiblarini ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni qishloq sharoitining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi.

Bu xususiyatlar quyidagilaridan iborat:

1. Qishloq aholisining tarqoq joylashganligi.
2. Qishloq xo'jalik ishlarining mavsumiyligi.
3. Tuman markaziga ayrim qishloqlarning uzoq joylashganligi, yo'l sharoitlarining yomonligi.
4. Jamoat transportlarining yetishmasligi, ularning belgilangan grafikda muntazam qatnamasligi, telefon aloqasining yomonligi.
5. Qishloq aholisining urf – odatlari, turmush tarzi, yashash sharoitining o'ziga xosligi.
6. Mutaxassislar bilan kam ta'minlanganligi va boshqalar.

Qishloq aholisiga tibbiy xizmatni tashkil qilishning eng asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning bosqichligidadir.

Qishloq aholisiga davolash - profilaktika, sanitariya-profilaktika yordami, kompleks tibbiy muassasalar tomonidan qishloq oilaviy shifokor punktidan (ba'zilarida FAP) boshlab viloyat muassasalarigacha ko'rsatiladi.

Qishloq oilaviy shifokor punkti

Qishloq oilaviy shifokor punkti (QOSHP) – o'ziga biriktirilgan qishloq aholisiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatuvchi davolash – profilaktika muassasasi hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda zamonaviy tibbiy texnika bilan jihozlangan 3,2 mingtadan ko'proq qishloq oilaviy shifokor punktlari faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq oilaviy shifokor punktlari, u xizmat ko'rsatayotgan aholi soniga, aholi punktlari soniga, joylashganligiga, xizmat radiusiga, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarining xarakteriga qarab tashkil etiladi.

Xizmat ko'rsatayotgan aholi soniga qarab QOSHP to'rt tipli bo'ladi:

Birinchi tip – 1500tagacha odamga

Ikkinchi tip – 1500 dan 3500tagacha

Uchinchi tip – 3500dan 6000 tagacha

To'rtinchi tip – 6000 tadan 10 000 tagacha.

QOSHPda ishlovchi vrachlar tarkibi va shtatlari lavozimining soni, uning tipiga va xizmat ko'rsatayotgan aholi soniga qarab belgilangan tartibda aniqlanadi.

QOSHPning tarkibi va uning faoliyatini boshqarish

QOSHP strukturasi uning tipiga va xizmat ko'rsatayotgan aholi soniga bog'liq. Oilaviy shifokor va kunduzgi shifoxonadagi o'rinlar soni QOSHPning tipiga bog'liq.

QOSHPga tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i tomonidan tayinlangan – mudir rahbarlik qiladi, o'rinbosari sifatida moliyaviy menedjer lavozimi kiritilgan.

QOSHP mudiri, o'rnatilgan tartibda QOSHPning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. QOSHP faoliyati tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan nazorat qilinadi. QOSHP to'laqonli faoliyat ko'rsatish uchun davlat mablag'i hisobidan tibbiyot apparatlari, tibbiyot mebellari, dori vositalari, sanitariya va gigiyena vositalari, yumshoq va qattiq inventarlar bilan ta'minlanadi.

QOSHPning maqsad va vazifalari

QOSHPni tuzishdan maqsad oilaviy shifokor va oilaga tibbiy – ijtimoiy xizmat ko'rsatish printsipli asosida qishloq aholisiga sifatli birlamchi yordamni ko'rsatish.

QOSHPning asosiy vazifalari:

- Biriktirilgan hudud aholisini malakali tibbiy yordam bilan ta'minlash;
- Ambulatoriya va uyda bemorlarni qabul qilish;
- Qishloq aholisiga tez – tez uchrovchi kasalliklarni davolash va profilaktikasi bo'yicha alohida patsient va butun oila darajasida tibbiy xizmat ko'rsatish;
- O'z vaqtida konsultativ yordam ko'rsatish, kam uchraydigan og'ir kasalliklarning atipik kechish hollarida bemorlarni statsionar sharoitida davolash uchun ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalariga yo'llash;
- Tegishli diagnostika va davolash standartlariga mos holda xizmat ko'rsatayotgan hudud aholisiga statsionargacha bo'lgan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;
- Xizmat ko'rsatayotgan aholi orasida kasallanishlar, shikastlanishlar, nogironlik va o'limni kamaytirish, hamda ularning profilaktikasi bo'yicha chora – tadbirlar o'tkazish;
- Profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklarni tashkil etish: birinchi navbatda bolalar, o'smirlar, tug'ruq yoshidagi ayollar, yolg'izlar. Qariyalar, nogironlar, surunkali bemorlar orasida ijtimoiy ahamiyatiga molik kasalliklar, sil, teri tanosil kasalliklari, xavfli o'smalar, OITS va VICH infeksiyasini barvaqt aniqlash, ularga qarshi kurashish bo'yicha chora- tadbirlar o'tkazish;
- Kompleks sanitariya va epidemiyaga qarshi chora – tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish (profilaktik emlashlar, aholi punktlarini tozalash, suv bilan ta'minlash, muassasalar va tashkilotlar ustidan joriy sanitariya nazoratini o'tkazish);
- Aholini sanitariya – gigiyenik jihatdan tarbiyalash, oqilona ovqatlanish, spirtli ichimliklar ichish, chekish va boshqa zararli odatlarning oldini olish bo'yicha sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- Yolg'izlarga, qariyalarga, nogironlarga, surunkali xastalikka chalingan bemorlarga ijtimoiy yordam xodimlari bilan hamkorlikda tibbiy – ijtimoiy yordam ko'rsatish, patronaj tashkil etish;
- Belgilangan tartibda vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik hollarini ekspertiza qilish: bemorlarni salomatlik holatini va mehnatga

layoqatsizligini aniqlash maqsadida vrachlik ekspertizasini o'tish uchun VKK va VMEK yo'llanma berish;

➤ Ommaviy dala ishlari davrida qishloq xizmatchilariga tibbiy yordamni yanada yaqinlashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

➤ Tegishli ta'minot va diagnostika standartlariga mos holda laboratoriya va instrumental tekshirishlarni o'tkazish;

➤ Patsientlar haqidagi axborotlarni sir saqlagan holda, ularning huquqlariga rioya qilish.

QOSHPda aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatuvchi asosiy figura oilaviy shifokor hisoblanadi. Oilaviy shifokor bemorlarni QOSHPda va uyda qabul qiladi, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatadi, kompleks profilaktik, immunologik, sanitariya va epidemiyaga qarshi, diagnostika – davolash reabilitatsiyaga oid tadbirlar o'tkazadi, UASh malakaviy tasnifidan kelib chiqqan holda oilaning tibbiy – ijtimoiy muammolarini hal etishga yordam beradi. QOSHP tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda biriktirilgan aholi salomatligini reproduktiv yoshdagi aholi salomatligini muhofazalash, bolalar, onalar orasida kasalliklar va o'limni kamaytirish maqsadida chora – tadbirlar o'tkazadi.

Qishloq oilaviy shifokor punkti umumiy amaliyot shifokorining asosiy vazifalari:

- Biriktirilgan aholiga tez – tez uchraydigan kasalliklarni davolash va ularning profilaktikasi bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatadi;

- Og'ir kechuvchi kasalliklar va atipik kechuvchi kasalliklar paydo bo'lganda bemorlarni tegishli ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalariga, o'z vaqtida mutaxassislar konsultatsiyalariga yuborish;

- Mavjud tibbiyot vositalari va tegishli standartlarga mos ravishda tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;

- Kompleks sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish, profilaktik emlashlar, biriktirilgan hudud maydoni va uy xo'jaliklarining umumiy sanitariya holatini nazorat qilish, yuqumli kasalliklar o'chog'ida epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish, aholini xavfli epidemiologik vaziyat to'g'risida ogohlantirish;

- Aholini sanitariya – gigiyenik tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, istalmagan homiladorlikning oldini olish, oilani oqilona rejalash bo'yicha chora – tadbirlar tashkil etish va o'tkazish;

- Ayollarni homiladorlik davrida va tug'ruqdan keyin kuzatish, ko'krak suti bilan ovqatlanishni targ'ib etish;

O'quv uslubiy qo'llanma

- Ijtimoiy soha xodimlari bilan hamkorlikda yolg'izlar, qariyalar, nogironlar, surunkali xastalikka chalingan bemorlarga tibbiy – ijtimoiy yordam ko'rsatish, patronaj tashkil etish.

- Dekretlashtirilgan aholini (bolalar, o'smirlar, tug'ruq yoshidagi ayollar, surunkali kasalliklar) umumiy dispanserizatsiyadan o'tkazish.

- Kasalliklarni barvaqt aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklarni o'tkazish;

- Ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga (sil, venerik kasalliklar, xavfli o'smalar, qandli diabet, OITS/VICH, giyohvandlik) qarshi davolash – profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

- Bemorlarga VKK va VMEK yo'llanmalar berish orqali vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikni ekspertiza qilish;

- Yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar va favqulodda vaziyatlar yuz berganda DSENM va TTBga o'z vaqtida xabar berish;

- Tibbiyotning qayd va hisobot hujjatlarini sifatli va o'z vaqtida to'ldirish;

- QOSHP mudiriga, o'ziga biriktirilgan xududda o'tkazilgan ishlar haqida vaqti – vaqti bilan hisobotlar berish.

UASH tibbiyot va ijtimoiy yordam masalalari bo'yicha o'tkazilayotgan anjumanlarda ishtirok etadi, u doimo o'zining kasbiy bilim va malakasini oshirib boradi. Malakaviy toifasini tasdiqlash uchun har 5 yilda bir marta attestatsiyadan o'tadi.

QOSHPda registratorming asosiy vazifasi va QOSHPda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar hajmi asosan shahar oilaviy poliklinikasiga mos keladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, QOSHP faoliyatini QOSHP mudiri boshqaradi. U QOSHPga biriktirilgan aholiga birlamchi tibbiy – sanitariya yordamini ko'rsatadi va kasalliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik chora tadbirlarni o'tkazadi, sifatli va samarali tibbiy yordam ko'rsatish, aholi salomatligini muhofazalash maqsadida QOSHP faoliyatini boshqaradi.

QOSHP mudirining funktsional majburiyatlari

- QOSHP faoliyatiga rahbarlik qiladi va muassasa ishining natijalariga mas'ul hisoblanadi;

- Qonun va me'yoriy – huquqiy hujjatlar doirasida QOSHPning moliya – xo'jalik faoliyatini samarali va oqilona boshqarishni ta'minlaydi;

- Aholiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini ko'rsatish uchun QOSHPni dori – darmon, kontratseptiv vositalar, tibbiyot asbob – uskunalari va texnikalari bilan ta'minlaydi;

➤ Butun QOSHP jamoasi ishini tahlil etgan holda, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifatini oshirish maqsadida chora – tadbirlar ishlab chiqadi;

➤ Kasallanishlar, shu jumladan vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotishga olib kelgan kaslliklarning kelib chiqish sabablarini o'rganadi, aholi orasida kasallanishlarni, shikastlanishlarni, nogironlikni va o'limni kamaytirish bo'yicha profilaktik chora tadbirlar o'tkazadi;

➤ Tibbiy xizmatning sifati va samaradorligini oshirish uchun biriktirilgan aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning tashkiliy shakllari va usullarini takomillashtiradi;

➤ Yuqumli kasalliklar o'chog'ida observatsiya tadbirlari o'tkazishni ta'minlaydi;

➤ Jamoa bilan birgalikda aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va o'tkazadi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib etadi;

➤ QOSHP xodimlarini tegishli tibbiyot muassasalarida malakasini oshiradi, qonferentsiyalar tashkil etadi.

➤ Tuman tibbiyot birlashmasiga biriktirilgan xududda QOSHP amalga oshirilgan ishlar haqida belgilangan tartibda yillik hisobot topshiradi.

QOSHP moliyaviy menedjeri etib, oliy yoki o'rta maxsus iqtisod yoki moliya bilimiga, kamida uch yil amaliy faoliyat stajiga ega bo'lgan mutaxassis tayinlanadi. U o'z faoliyatida QOSHP mudiriga buysunadi, buxgalteriya ishlari va hisoboti bo'yicha o'zidan yuqori tashkilot bosh buxgalteriyaga buysunadi. Moliya menedjeri QOSHPda buxgalteriya hisob – kitobi va xo'jalik – moliya faoliyatini olib boradi. Mablag'larni, mehnat va moliya resurslaridan tejab foydalanishni nazorat qiladi. Buyruqlar, farmoyishlar QOSHPda kadrlar ishi hujjatlarinida yuritadi. QOSHPning xo'jalik – moliyaviy faoliyatini tahlil etadi, xodimlarga iqtisodiy, huquqiy va mehnat faoliyati masalalari bo'yicha uslubiy yordam beradi. Buxgalteriya qayd, hisobot hujjatlarini saqlash, muassasa biznes rejasini QOSHP mudiri bilan birgalikda o'z vaqtida to'g'ri tayyorlash va topshirishga mas'ul va boshqalar.

Oilaviy poliklinika ishini tashkil etish

Xozirgi kunda respublikamiz shaharlarida oilaviy poliklinikalarni tashkil etishga katta ahamiyat berilmoqda. Oilaviy poliklinika xizmati sog'liqni saqlash tizimida muhim o'rinni egallaydi.

- Birinchidan, oilaviy poliklinikalar eng ommaviy va aholi uchun eng yaqin tibbiyot muassasalaridan biri bo'lib, unda yiliga 80%dan ortiq aholi tibbiy yordam oladi.

- Ikkinchidan, bunday muassasalarda ishlovchi shifokorlarning faoliyati juda katta profilaktik ahamiyatga egadir (barvaqt tashxis qo'yish, yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va boshqalar).

- Uchinchidan, ambulatoriya va poliklinikalarning faoliyati boshqa tibbiyot muassasalarining ishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Poliklinikaning ish sifati ayniqsa, kasalxonalarining faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, poliklinikada kasallarga qanchalik o'z vaqtida to'g'ri tashxis qo'yilib, shifoxonaga yuborilsa, kasallarning shifoxonada davolanish muddati qisqaradi, kasallikdan xalos bo'lishi tezlashadi. Poliklinikalarda kasallar qancha erta malakali va sifatli davolansa, ularning kasalxonalarda davolanishga bo'lgan extiyoji shuncha kamayadi.

Oilaviy poliklinika aholiga statsionargacha bo'lgan birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishga mo'ljallangan tibbiy muassasadir. Poliklinika ishiga Bosh vrach rahbarlik qiladi. Bosh vrach muassasada ko'rsatilayotgan davolash-profilaktika yordamining sifati va madaniyatiga, tashkiliy, ma'muriy-xo'jalik va moliyaviy faoliyatga mas'ul. U poliklinika xududidagi aholiga davolash-profilaktika yordamini ko'rsatish rejasini tuzadi va uning bajarilishini ta'minlaydi. Bosh vrach muassasaga tibbiyot va ma'muriy xo'jalik xodimlarini tanlaydi va ularni ishga qabul qiladi, ularning ishini nazorat qiladi, lozim topganda rag'batlantiradi, mehnat imtizomi buzilganda esa ularni ma'muriy javobgarlikka tortadi. Vrachlar va o'rta tibbiyot xodimlari malakasini oshirishni tashkil etadi, bo'limlarga rahbar xodimlar zaxirasini yaratadi, kun tartibini belgilaydi, xodimlarning ish grafigini tasdiqlaydi va boshqalar. Bosh vrach tajribali, malakali, tashkilotchilik xususiyatlariga ega bo'lgan vrachlardan o'ziga birinchi muovini tanlaydi. Bosh vrach bo'lmagan davrda u Bosh vrachning majburiyatlarini bajaradi. U muassasaning jami davolash-profilaktik faoliyatiga javobgar hisoblanadi. Shu maqsadda Bosh vrachning davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari bemorlarni o'z vaqtida poliklinika qabulida va uyda to'g'ri, sifatli tekshirish va davolashni tashkil etadi va nazorat qiladi; yangi tashkiliy usullar na tibbiyot muassasalarining ilg'or ish tajribalarini, bemorlarni tashxislash, davolash va kasalliklar profilaktikasining zamonaviy samarali usullarini poliklinika faoliyatiga tatbiq etadi. U poliklinika bilan statsionar o'rtasida bemorlarni tekshirish va davolash bo'yicha uzaro uzviylikni, bog'liklikni ta'minlaydi, bemorlarni lozim bo'lganda statsionarga yotkizishni tashkil etadi, barcha profilaktik ishlarga

rahbarlik qiladi, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish rejasi bajarilishini ta'minlaydi. Davolash nazorat komissiyasining ishini tashkil etadi, xay'at bilan birgalikda tashxislar tafovuti, vrachlik xatosi va davolash-tashxislash ishlari xolatini muhokama qiladi, tibbiyot statistikasi xonasining ishini tashkil etadi va nazorat qiladi.

Oilaviy poliklinikaning shtati shtatlar me'yoriga mos xolda belgilanadi.

Oilaviy poliklinikaning tarkibi quyidagilardan iborat:

- ro'yxatxona;
- umumiy amaliyot vrachlari xonalari;
- klinik tashxislash laboratoriyasi;
- funktsional diagnostika xonasi, oral regidratatsiya punkti;
- sog'lom bola xonasi, fizioterapiya bo'limi, markaziy sterillash bo'limi;
- axborot kommunikatsiya yoki statistika xonasi;
- buxgalteriya;
- ma'muriy xo'jalik bo'limi.

Oilaviy poliklinika o'ziga biriktirilgan xudud aholisining kasalliklarini kamaytirish bo'yicha sog'lom aholi guruhini va bemorlarni dispanser nazoratiga olishga, bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishga, keng ko'lamdagi profilaktik chora-tadbirlarni olib borishga mo'ljallangan davolash-profilaktika muassasasidir. Oilaviy poliklinika aholiga tibbiy xizmatni oila hududi printsipida ko'rsatadi.

Poliklinikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kasallikni barvaqt aniqlash, kasalliklarni, nogironlik, o'limni kamaytirish, oldini olish bo'yicha kompleks profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.
2. Oila hududi prinsipida biriktirilgan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish (patsientlarni poliklinikada qabul qilish, bemorlarga uyda tibbiy yordam ko'rsatish va boshqalar).
3. Aholi salomatlik xolatini dispanser nazoratiga olish, tegishli tekshirishlar, davolash va sog'lomlashtirish ishlarini olib borish.
4. Laboratoriya va instrumental tekshirishlarni o'tkazish.
5. O'ratilgan tartibda bemorlarni statsionarga yotqizish.
6. Bemorlarga umumiy amaliyot vrachi doirasida malakali tibbiy yordam ko'rsatish.
7. Hayoti xavf ostida qolganda ~~hartsiz hodisalarda~~ (shikastlanishlar, zaharlanishlar va boshqa xolatlarda) shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish, ko'rsatmalarga asosan bemorlarni boshqa davolash-profilaktika

muassasalariga ixtisoslashgan tibbiy yordam olish uchun yuborilishini ta'minlash.

8. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligini ekspertiza qilish mehnatga layoqatsizlik varaqasini berish, uzoq muddatli va turg'un mehnat qobiliyatini yo'qotgan bemorlarga vrachlik mehnat ekspert hay'atiga yo'llanma berish.

9. Ijtimoiy-ta'minot organlari bilan birgalikda nogironlarga va surunkali kasallikka chalingan bemorlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

10. Oilada quyidagi masalalar bo'yicha sanitariya-targ'ibot ishlarini olib borish:

- yuqumli kasalliklar profilaktikasi;
- ona sutining ahamiyati, bolalarni gigiyenik tarbiyalash.
- bolalar salomatligini saqlash, ularni ta'lim muassasalariga tayyorlash, kasbga yo'naltirish;
- reproduktiv salomatlikni muxofazalash, xavfsiz onalikni ta'minlash, istalmagan xomiladorlikning oldini olish, kontratsepsiya, etika, psixologiya, oilaviy xayotning ijtimoiy va tibbiy-seksual qirralari;
- sog'lom turmush tarzi, jismoniy mashg'ulot va sportning ahamiyati;
- zararli odatlar va ularning oqibatlari.

11. Oilaviy poliklinikaga biriktirilgan aholining salomatlik holatini tahlil etish va sog'lomlashtirish chora-tadbirlari haqida rejalar ishlab chiqish

12. Belgilangan tartibda profilaktik emlashlarni olib borish. Aholi orasida yuqumli, parazitar va kasb kasalliklari, zaxarlanishlar aniqlanganda sanitariya-gigiyena qoidalari va epidemiyaga qarshi talablar buzilganda sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalariga xabar berish.

13. Tibbiy hisob va xisobot xujjatlarini to'g'ri, asosli va o'z vaqtida to'ldirish.

14. Bemorlarni tekshirish va davolashda boshqa tibbiyot muassasalari bilan o'zaro muvofiqlashuv printsipiga amal qilish.

Ro'yxatxona oilaviy poliklinikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u poliklinikaga kelgan bemorlarni vrach qabulida va uyda tibbiy yordam ko'rsatish uchun ro'yxatga oladi. Ro'yxatxonada vrachlar qabuliga yozilish va ularni uyga chaqirish, mehnatga yaroqsizlik varaqalari va spravkalarni berish xamda tibbiyot arxivi uchun joy ajratiladi. Ro'yxatxona ishiga bevosita bosh hamshira rahbarlik qiladi. Ro'yxatxonaning asosiy funktsiyasi:

1. Oldindan va bevosita murojaat qilganda hamda telefon orqali bemorlarni vrach qabuliga va uyga chaqirish bo'yicha ro'yxatga olishni tashkil etish.

2. Xar kuni, bayram va dam olish kunlaridagi vrach qabuli haqida, ularning qabul vaqtlari va xonalarini ko'rsatgan holda aholiga axborot berish.

3. Vrachni uyga chaqirish, oldindan qabulga yozilish, Bosh vrach va uning muovinining qabul vaqti va kunlari, dorixonalar, statsionar, tunda, dam olish, bayram kunlari aholiga shoshilinch vrachlik yordamini ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalari, ularning manzillari haqida axborot berish.

4. Mehnat qobiliyatini yo'qotganlik varaqasi va ma'lumotnomalarni maxsus jurnalga qayd etish.

5. Oilaviy poliklinikaga yangi kelgan bemorlarni ro'yxatga olish.

6. Tibbiy xujjatlarni to'g'ri yuritish.

Ro'yxatxonaning muhim vazifalaridan biri murojaat etayotgan bemorlarni vrach qabuliga yozish, uyga chaqiruvni ro'yxatga olishdan iborat.

Vrachni uyga chaqirish bevosita ro'yxatxonaga murojaat etish yoki telefon orqali yozilish tufayli amalga oshirilishi mumkin. Qabul kilingan chaqiruvlar «Vrachni uyga chaqirish kitobi»ga yoziladi. Kitob shakli SSVning 2006 yil 287-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Ro'yxatxona ishini optimallashtirishda registrator ish o'rmini oqilona tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiy ro'yxatxona oynasi oldida bo'lim raqami, vrachlarning ism sharifi, ular xizmat ko'rsatuvchi ko'chalarning nomlari, uylar soni ko'rsatilgan doska bo'lishi lozim. Poliklinika vestibyulida vrachlarning qabul soatlari, kunlari, qabulxonalarining raqami ko'rsatilgan doska osib qo'yilishi lozim. Ushbu doskada Bosh vrach va uning muovinlarining qabul kunlari, vaqti haqida xamda dam olish kunlari, shoshi linch tibbiy yordam ko'rsatadigan shaxar (tuman) statsionarlarining manzili, vrachlarni uyga chaqirish uchun telefon raqamlari ko'rsatiladi. Bemorlarga o'z vaqtida tez tibbiy xizmat ko'rsatish uchun ro'yxatxonadagi shkaflarda ambulatoriya kartalari oila-hudud printsipi bo'yicha joylashtirilgan bo'lib, har bir oila-hududga qarashli ambulatoriya kartalari ko'chalar, uylar, xonadonlar bo'yicha joylashtirilishi lozim. Registrator ishini yengillashtirish uchun xar bir umumiy amaliyot vrachiga tegishli ambulatoriya kartalari maxsus ranglar bo'yicha markerlanadi. Kelgusida ro'yxatxona ishini qog'ozsiz usulga, ya'ni axborotlar saqlashning elektron tizimiga o'tkazish mumkin. Buning uchun esa har bir vrach xonasi,

tashxislash-davolash xonalarida terminallarga ega bo'lgan poliklinika bo'yicha lokal kompyuter tarmog'i yaratiladi. Ro'yxatxona faoliyatida tibbiyot xujjatlarini to'g'ri yuritish katta ahamiyatga ega. Ro'yxatxona xodimlari xujjatlarni to'g'ri to'ldirishga mas'ul hisoblanadi. Odatda, aholi birinchi bor tibbiy yordam uchun oilaviy shifokorga murojaat qiladi. Xar bir oila shifokoriga 1300—1500 ta aholi biriktiriladi. 2000 aholiga 1,5 ta umumiy amaliyot vrachi shtati lavozimi ajratiladi.

Oila shifokori o'ziga biriktirilgan uchastkada quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

1. Biriktirilgan aholi salomatligini muhofazalash bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatish, alohida olingan bemor yoki barcha oila a'zolarini, eng ko'p uchraydigan kasalliklarni davolash, ularning profilaktikasi.

2. Bemorlarni o'z vaqtida konsultatsiyaga va ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga davolash uchun yuborish.

3. Tegishli standartlarga mos xolda xizmat ko'rsatayotgan hudud aholisiga shoshilinch statsionargacha bo'lgan tez yordam ko'rsatish.

4. Xizmat ko'rsatayotgan aholi orasida shikastlanishlar, nogironlik, o'limni kamaytirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqish.

5. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish (oqilona ovqatlanishni tavsiya etish, chekish, spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishga qarshi kurashish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni targ'ib etish).

6. Sanitariya va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish: profilaktik emlashlar, biriktirilgan hudud va uy xo'jaliklarining sanitariya xolati, hududning epidemiologik xolatini tahlil etish, biriktirilgan aholini noxush epidemiologik vaziyatlar to'g'risida ogohlantirish.

7. Homiladorlarni dispanser nazoratiga olish, ularga uyda patronaj tashkil etish, lozim bo'lganda ularni mutaxassis vrachlar kurigiga yuborish, xar bir xomiladorga tug'ruq uchun ma'qul davolash-profilaktika muassasasini tanlash, tug'uruqdan so'ng kuzatuv tashkil etish, tug'ma anomaliyalar va nasliy kasalliklarni kamaytirish.

8. Biriktirilgan aholi orasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kompleks tadbirlarni tashkil etish va olib borish, jumladan:

- o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lomlashtirish;

- onalik va bolalikni muhofazalash;

- istalmagan homiladorlikning oldini olish, oilani oqilona rejalashtirish, oilaviy hayotning etik, psixologik, gigiyenik, ijtimoiy va boshqa qirralari;

- homiladorlik, tug'ruq va tug'uruqdan keyingi davr;
- ko'krak suti bilan ovqatlantirish;
- oqilona ovqatlanish;
- sanitariya va gigiyena asoslari.

9. Yolg'izlarga, qariyalarga, nogironlarga, surunkali xastalikka chalinganlarga ijtimoiy yordam xodimlari bilan birgalikda tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish, patronaj tashkil etish.

10. Biriktirilgan aholi orasida tarqalgan kasalliklarni barvaqt aniqlash maqsadida profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklarni tashkil etish va o'tkazish, dekretlashtirilgan aholini dispanser nazoratiga olish (bolalar, o'smirlar, tug'ruq yoshidagi ayollar, surunkali kasallikka chalingan bemorlar).

11. Ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha davolash-profilaktik tadbirlarni o'tkazish (asab-ruhiy, teri-tanosil kasalliklari, xavfli o'smalar, OITS va OIV-infeksiya).

12. Aholi kasallanishlari, vaqtinchalik va turg'un mehnat qobiliyatini yo'qotganlik sabablarini o'rganish, kasallanishlar va shikastlanishlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

13. Biriktirilgan aholiga tibbiy xizmatning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida tibbiy yordam ko'rsatishning yangi tashkiliy shakllari va usullarini takomillashtirish.

14. Belgilangan tartibda vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik hollarini ekspertizalash: bemorlarga VKK (vrachlik konsultatsiya komissiyasi)ga va VMEK (vrachlik mehnat ekspertizasi komissiyasi)ga yo'llanma berish.

15. Yuqumli kasalliklar aniqlanganda, zaharlanishlarda va favqulotda vaziyatlarda xududiy DSENmlarga (ogohlantirish) xabar berish.

16. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va o'tkazishga keng jamoatchilikni jalb etish.

17. Qayd va hisobot xujjatlarini o'z vaqtida va sifatli yurg'izish.

18. Bemorlar haqidagi axborotlarni sir saqlagan holda, ularning huquqlariga rioya qilish.

19. Tibbiyot asbob va uskunalarini ehtiyot qilish va ulardan samarali foydalanish.

20. Xomilador ayollar, ayniqsa, «xavf» guruhiga kiruvchi ayollarni kuzatishda tug'ruqxona, ayollar konsultatsiyalari bilan doimiy aloqada bo'lish.

21. Chaqaloqning salomatlik guruhini aniqlash maqsadida tug'ruqxonadan chiqqandan so'ng birinchi 3 kunda tibbiyot xamshirasi

bilan uyga tashrif qilish. Ularni dinamik kuzatish va sog'lomlashtirish bo'yicha rejalar tuzish.

22. Bolalarni poliklinikada qabul qilish, jismoniy, asab-ruxiy rivojlanganligini baholash, ularni oqilona ovqatlantirish tartibini belgilash, raxitning oldini olish bo'yicha spetsifik va nospetsifik profilaktik chora-tadbirlar o'tkazish.

23. Bolalarni konsultatsiya qilish uchun boshqa vrach-mutaxassislariga yo'llash va tegishli laboratoriya tekshirishlarini o'tkazish.

24. Bemorlar chaqirgan kuni ularning uyiga borish, tegishli tibbiy yordam ko'rsatish, sog'ayguncha bemorlarni kuzatib, bir yoshgacha bemor bolani xar kuni kuzatish, kerak bo'lsa tezda statsionarga yotqizish. Xududdagi ayrim sabablarga ko'ra statsionarga yotqizilmagan ahvoli o'gir bemorlar haqida bo'lim mudiriga axborot berish.

25. Hudud xamshirasi bilan birgalikda profilaktik emlashlar rejasini tuzish.

26. Yuqorida keltirilganlardan tashqari, oila shifokori vazifasining muhim tomonlari:

— oilani xar tomonlama chuqur o'rganish, ya'ni oila a'zolari salomatligining genetik tahlilini olib borish;

— xar bir oila a'zosini, jinsi, yoshi, shikoyatlarining bor-yo'qligidan qat'iy nazar, kuzatib borish;

— bola tug'ilgunga qadar profilaktik ishlarni, homiladorlik davrida xamda bola tug'ilgandan so'ng uni boqish, tarbiyalash, kasalliklarning oldini olish borasida muhim chora tadbirlarni o'tkazish;

— kasalliklarning oldini olish uchun mutaxassislarning maslaxatini uyushtirish, tashxis qo'yish xamda keng tarqalgan kasalliklarni davolash;

— sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish.

Poliklinikaning ish faoliyatida muhim o'rinni bo'lim mudiri egallaydi. Har 9 ta oila shifokoriga 1 ta bo'lim mudiri lavozimi ajratiladi. Agar oila shifokorining soni 6,5 dan 9 tagacha bo'lsa, 0,5 bo'lim mudiri lavozimi kiritiladi, yuqorida ko'rsatilganidan kam bo'lsa, unda shifokorlarning biriga bo'lim mudirining vazifalari yuklatiladi. Bo'lim mudirining vazifasiga bo'limdagi vrachlar bilan birgalikda davolash-profilaktika ishlarining rejasini tuzish: tashxislash-davolash jarayoni, profilaktik emlash, rejali statsionarga yotqizish, dispanserizatsiya, sanatoriy-kurortlarga yo'llanma berish, bir yoshgacha bolalar salomatligini saqlash bo'yicha olib borilayotgan OSh ishini nazorat qilish, rahbarlik qilish va uni tekshirib borish, ishning sifatiga va samaradorligiga alohida ahamiyat berish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hollarini ekspertiza

qilish va boshqa vazifalar kiradi. O'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lim mudiri vaqt-vaqti bilan vrachlar qabulida bo'lishi, zarur bo'lgan vaqtda kasallarning uylariga xam borib ko'rishi kerak. Bo'lim mudiri tibbiyot xujjatlarini to'ldirib, ularning olib borilishi bilan tanishadi, vrachlar bilan birga bemorlarning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligini ekspertiza qiladi. Bo'lim mudirining eng muhim vazifalaridan biri tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bo'lib, bu ish konferensiyalar o'tkazish, tashxis qo'yish va davolash muolajalarining yangi usullarini o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, vrachlarning davolash, tashxislash ishlarining sifati va samaradorligini muntazam ravishda ekspertiza qilish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Poliklinika vrachlarining asosiy ish usuli dispanser usuli bo'lib, tibbiy xizmatning sifatini, samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**Oilaviy poliklinikada ko'rsatiladigan tibbiy xizmatning xajmi
Aholi salomatligini muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar.**

Umumiy amaliyot vrachi ish faoliyatining asosiy yo'nalishi o'ziga biriktirilgan aholi salomatligini saqlash va kasalliklar profilaktikasi hisoblanadi. Quyida oila shifokorining ish joyi, mahalla, maktab, maktabgacha ta'lim muassasalari, uyda va vrachlik hududida amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlarning xajmi keltirilgan:

1. Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha tashkil etiladigan va o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish, ratsional (oqilona) ovqatlanish, chekishga, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga qarshi kurash, faol dam olishni, sport va jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni targ'ib etish.

2. Eng ko'p tarqalgan kasalliklarning asoratlari va nogironlikning oldini olish bo'yicha birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish.

3. Aholini o'z vaqtida emlashni ta'minlash.

4. Shikastlanish, baxtsiz xodisalar, zaxarlanishlarning oldini olish bo'yicha tadbirlar olib borish.

5. Kasalliklarni barvaqt aniqlash va o'z vaqtida davolash bo'yicha aholi orasida skrining o'tkazish.

6. Aholining turli qatlamlari orasida (maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar, tug'ruq; yoshidagi ayollar, keksalar) tibbiy ko'riklar tashkil etish va o'tkazish.

7. Ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi xodimlari orasida tibbiy ko'riklarni o'tkazish va tashkil etish.

8. Surunkali kasallikka chalingan bemorlarni dispanser nazoratiga olish, turli guruxlar — astmatiklar, gipertoniklar va boshqalar o'rtasida «maktablar» tashkil etish.

9. Dori-darmonlardan oqilona foydalanish ustidan nazorat o'rnatish.

10. Ijtimoiy ahamiyatga molik eng ko'p tarqalgan: sil, teri tanosil va o'sma kasalliklariga qarshi kurash bo'yicha tadbirlar o'tkazish.

11. Tuman DSENM tashkilotlari bilan hamkorlikda yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib borish.

12. Jamoat tashkilotlarini aholi salomatligini muxofazalashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazishga jalb etish.

13. Bemorlar huquqlarini himoya qilish va savodxonligini oshirish.

14. Xar yili poliklinika va QOSHP, vrachlar va tibbiy hamshiralarning faoliyati, ular ko'rsatayotgan tibbiy xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha audit (tekshirish va taxlil) o'tkazish.

I. Oilaviy poliklinikada o'tkaziladigan profilaktik tadbirlar :

1. Sanitariya maorifi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ratsional ovqatlanishni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.

2. Alkogol, chekish, giyohvandlik va zararli odatlarga qarshi kurash. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish.

3. Xizmat ko'rsatilayotgan aholi orasida OITS, OIV, sil, onkologik kasalliklar, shikastlanishlar va zaxarlanishlarga qarshi profilaktik tadbirlar o'tkazish.

4. Kasalliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha profilaktik ko'riklarni tashkil etish va o'tkazish, lozim bo'lganda TMSH, ShMSh va boshqa davolash-profilaktika muassasalarining konsultatsiyalarini tashkil etish.

5. Aholi orasida dispanserizatsiyani tashkil etish, shu jumladan, 15 yoshgacha bolalar, o'smirlar (15—17), chaqiruv yoshidagilar (18—27 yosh), tug'ruq; yoshidagi ayollar (15—49 yosh), qishloq xo'jaligi xodimlari (paxtakor, chorvador, mexanizator, zaxarli kimyoviy moddalar bilan ishlovchilar) o'rtasida olib borish.

6. Nikohdan o'tayotgan yoshlarda tibbiy ko'riklarni o'tkazish va yosh oilalarni patronaj qilish.

7. Genetik kasalliklar (tug'ruqdagi nuqsonlar) kelib chiqishining oldini olish maqsadida xotin-qizlar qo'mitasi, mahalla qo'mitalari bilan hamkorlikda yaqin qarindoshlik nikohiga qarshi tashviqot ishlarini amalga oshirish.

8. Xududiy DSENM va TMSHlarini aniklangan yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar va favqulodda xodisalar haqida ogohlantirish.

9. Jamoa tashkilotlarini aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazishga keng jalb qilish.

II. Aholi va bolalarga statsionargacha ko'rsatiladigan shoshilinch tibbiy yordamning hajmi

1. Kollaps, koma (gipoglikemik, diabetik, jigar, uremik), shok (anafilaktik, gipovolemik, postgemorragik, infeksiontoksik, travmatik, kardiogen).

2. Barcha etiologiyalarga xos asfiksiya (chaqaloq asfiksiyasi, yot jism, cho'kish, osish va boshqalar).

3. O'tkir nafas yetishmovchiligi: halqum shishi, astmatik status, bronxoobturatsion sindrom, pnevmotoraks, o'pka shishi.

4. "O'tkir yurak yetishmovchiligi: paraksizmal taxikardiya, mertsal paroksizm, Morgan-Adams-Stoks sindromi, o'tkir qon yuqotish va qon ketish, gipertonik kriz, eklampsiya, o'tkir yurak to'xtashi, klinik o'lim.

5. O'tkir qorin sindromi: jigar, buyrak kolikasi, o'tkir siydik chiqarishning to'xtashi.

6. Bosh va orqa miya jarohatlari.

7. Turli etiologiyaga xos bo'lgan tutqanoq sindromi: epileptik status, gipertermik sindrom, dehidratatsiya sindromi, o'tkir allergik reaksiyalar, tireotoksik kriz.

8. Angionevrotik shish (Kvinke shishi).

9. Ko'zning termik va kimyoviy kuyishi, ko'z olmasi va orbitasining shikastlanishi, glaukomaning o'tkir xuruji.

10. Elektr jaroxat, kuyish va ko'plab shikastlanishlar (shikastlanishlar va sinishlar), hayvonlarning tishlashi va xasharotlarning chaqishi.

11. Zaxarlanishlar (uyqu dori, uglerod oksidi, fosfor organik birikmalar, kislotalar, ishqorlar, qo'ziqorinlar, oziq-ovqat maxsulotlari).

12. Alkogol deliriyasi.

III. Shoshilinch holatlarda ko'rsatiladigan birlamchi vrachlik yordami muolajalari ro'yxati:

1. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (ABC):

➤ nafas yo'llarini tozalash (mexanik yo'l bilan xamda so'rg'ich (otsos) yordamida og'iz bo'shlig'ini tozalash);

➤ nafas olishni normallashtirish (Ambu qopi yordamida, IVL);

➤ yurakni bilvosita massaj qilish;

➤ dori-darmonlarni va suyuqliklarni parenteral yo'l bilan yuborish.

2. Nafas yo'llaridagi yot jismlarni olib tashlash:

➤ ko'z-burun va quloqdagi yot jismlarni olib tashlash;

- qon ketishda jgut, tampon qo'yish va bog'lash;
- yumshoq kateter yordamida siydik qopini kateterlash;
- oshqozonni yuvish, klizma qilish;
- immobilizatsion shina qo'yish;
- umurtqa pog'onasi bo'yin qismini immobilizatsiyalash;
- sinishlarda og'riqni to'xtatuvchi vositalar qo'llash;
- kislorodni ishlatish;
- zo'riqqan (klapanli) pnevmotoraksda plevra bo'shlig'i punktsiyasi;
- konikotomiya;
- sifonli klizma;
- qoqsholga qarshi zardob va anatoksin yuborish.

IV. Umumiy amaliyot vrachi tomonidan oilaviy poliklinika sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish lozim bo'lgan kasalliklar ro'yxati:

Umumiy amaliyot vrachi tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordamning hajmi, tekshirish, davolash usullari va kasalliklar ro'yxati umumiy amaliyot vrachining malakaviy tasnifida keltirilgan.

V. Oilaviy poliklinikalarda bajariladigai tibbiy muolajalar:

1. Lotin tilida retsept yozish.
2. Bemorlarni palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya yordamida tekshirish va antropometrik o'lchashlar o'tkazish.
3. Qo'llarda va oyoqlarda qon bosimini o'lchash.
4. EKG apparatida ishlash, mustaqil EKG olish va ularni tahlil qilish.
5. Gemogramma tekshiruvini uchun qon olish.
6. Fotometrik usul yordamida eritrotsitlar, leykotsitlar, gemoglobin miqdorini va eritrotsitlar cho'kish tezligini (EChT) aniqlash.
7. Leykotsitar formulani hisoblash uchun qondan surtma tayyorlash va uni hisoblash.
8. Qon va siydik ko'rsatkichlarining klinik ahamiyatini tahlil etish, qonda qand, transferazalarni (ALT, ACT), bilirubin, mochevina miqdorini aniqlash.
9. Turli yosh guruhlarida kaptogrammaning norma va patologik jarayonlardagi xususiyatlarini tekshirish.
10. Siydikning fizik va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, zamonaviy ekspress usullar, oqsil, qand, atseton va o't pigmentlarning siydikdagi miqdorini aniqlash usullari, siydik cho'kmalari mikroskopiyasi, Nechiporenko usulini qo'llash va klinik baholash.

11. Chaqaloqni birlamchi cho'miltirish, Apgar shkalasi bo'yicha baholash, jonlashtirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, yelka va son suyagi singanda fiksatsiyalovchi bog'lamlar qo'llash; uyda tuqqanda kindik yarasini birlamchi yuqumsizlantirish.

12. Rinoskopiya, faringoskopiya, otoskopiya, tashqi quloq va mo'rtaklar lakunalarini yuvish, bakteriologik tekshiruvlar uchun tanglaydan, burundan va ko'zdan surtmalar olish, eshitish qobiliyatini yo'qotganlik darajasini aniqlash.

13. Oftalmoskopiya, Maklokov tonometri yoki palpator usulda oftalmotonusni aniqlash, jadval yordamida va taxminan ko'zning o'tkirligini aniqlash, ko'rish qobiliyatini baholash, qovoqni oddiy ag'darish, konyuktivadan yuzaki yot jismlarni olib tashlash, ko'z jarohatlanganda, kuyganda statsionargacha bo'lgan yordam, mono- va binokulyar bog'lov texnikasi.

14. Antibakterial preparatlarni oqilona tanlash.

15. Respirator va qo'l bilan sun'iy nafas oldirish texnikasi, mexanik usulda yoki otsos yordamida og'iz bo'shlig'idagi moddalarni olib tashlash, konikotomiya va traxeya intubatsiyasi texnikasi.

16. Yurakni bilvosita massaj qilish, infuzion vositalar miqdorini aniqlash va ularni venaga yuborish.

17. Sun'iy ravishda qayt qildirish va oshqozonni yuvish, oshqozonga oral va nazogastral yo'l bilan zond qo'yish, qizilo'ngach kuyganda statsionargacha yordam, oral va infuzion regidratatsiya va dezintoksikatsiyani hisoblash, tozalovchi huqna qilish texnikasi.

18. To'g'ri ichakni barmoq va instrumental (rektal oyna) tekshirish, tushgan to'g'ri ichakni qaytarish texnikasi.

19. Siydik qopini yumshoq kateter yordamida kateterlash, siydik qopini qovuq usti punktsiyasi texnikasi, parafimozni to'g'rilash, balantit va balanapastitda olatni yuqumsizlantirish, prostata bezini tekshirish usuli.

20. Kichik xirurgik aralashuvlarda qo'lni yuqumsizlantirish texnikasi, xirurgik iplar yordamida tikish va ularni olib tashlash, tishlangan, yara va kuygan joylarni zararsizlantirish, yiringli yaralarni yorish va drenaj qo'yish (panaritsiy, abstsess, flegmona), bo'shliq va rovaklarga zond qo'yish, tildagi so'galni olib tashlash, yumshoq to'qimalarda yot jismlarni olib tashlash, ko'kyo'talga qarshi anatoksin va zardob yuborish usuli.

21. Yirik bog'imlar jarohatlanganda yumshoq bog'lov qo'yish, langet qo'yish va olib tashlash, simli va transport shinasi, singanda jonli anesteziya, umurtqa pog'onasi jarohatlanganda va suyaklar singanda

bemorni joylashtirish va transportda yuborish texnikasi. Tashqi qon ketishida vaqtincha qon ketishini to'xtatish. ;

22. Kuyganda, bug'alganda, cho'kkanda, sovuq urganda, elektr jarohatida, hasharotlar chaqqanda, hayvonlar va kalamushlar tishlaganda statsionargacha yordam ko'rsatish.

23. Paraneural va boshqa hollarda novokain bilan blokada qilish texnikasi.

24. Diabetik parhez va yog'siz parhez ovqatlarni yozish.

25. Jinsiy rivojlanganlikni aniqlash formulasi.

26. Konning akusher tekshiruv va uni o'tkazish, Papanikolau usulida surtma olish, bachadon bo'ynida o'sma borligini skrininglash, qin surtmasining tozalik darajasini aniqlash.

27. Ginekologik tekshiruv, shu jumladan, oyna bilan bimanual tekshiruv.

28. Genitaliy shikastlanganda statsionargacha yordam.

29. Xomiladorlik davridagi favqulodda shoshilinch holatlarda birlamchi vrachlik yordami.

30. Kontratseptiv vositalarning zamonaviy usullari.

31. Funktsional diagnostika testlarini tahlil etish.

Ambulatoriya – poliklinika muassasalarida yuritiladigan tibbiy hisob hujjatlari

№	Forma nomi	№	Format	Xujjat shakli	Saqlanish muddati
A	1	2	3	4	5
1	Ambulatoriya-poliklinika muassasasiga kelganlarni qayd etish jumali.	024-h/sh	A-4	jumal	5 yil
2	Shifokorning kundalik qabul jurnali	024-1 h/sh	A-4	jumal	5 yil
3	Akusher-ginekologning (doya) kundalik qabul jumali	024-2 h/sh	A-4	jumal	5 yil
4	Ambulator tibbiy karta	025-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.1	OSH, terapev/pediatr dispanser nazorat ambulator tibbiy kartasi	025-3-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.2	Jarroh dispanser nazoratining ambulator tibbiy kartasi	025-4-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.3	Endokrinolog dispanser nazoratining ambulator	025-5-h/sh	A-4	daftar	75 yil

	tibbiy kartasi				
4.4	Otolaringolog dispanser nazoratining ambulator tibbiy kartasi	025-6-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.5	Nevropatolog dispanser nazoratining ambulator tibbiy kartasi	025-7-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.6	Oftalmolog dispanser nazoratining ambulator tibbiy kartasi	025-8-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.7	Ftiziatr-pulmonolog dispanser nazorat ambulator tibbiy kartasi	025-9-h/sh	A-4	daftar	75 yil
4.8	Venerologik kasali bor bemorning dispanser nazorat ambulator tibbiy kartasi	025-10-h/sh	A-5	daftar	75 yil
4.9	Zamburug'li kasallik bilan kasallangan bemorning dispanser nazorat ambulator tibbiy kartasi	025-11-h/sh	A-5	daftar	75 yil
4.10	Ruhiy va hulq atvori buzilgan bemorning dispanser nazorat ambulator tibbiy kartasi	025-12-h/sh	A-5	daftar	75 yil
5	Chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik kartasi	025-1-h/sh	A-4	daftar	75 yil
6	Yakuniy (aniq) tashxislarni qaydlash uchun statistik talon	025-2-h/sh	A-4	blank	2 yil
7	Uyga chaqiruvlarni qayd etish jurnali	029-h/sh	A-4	jurnal	2 yil
8	Dispanser kuzatuvining nazorat kartasi	030-h/sh	A-5	blank	3 yil
9	Ruxiy kasalligi bor bemorning dispanser kuzatuv nazorat kartasi	030-1-h/sh	A-5	blank	3 yil
10	Psixonevrologik muassasaning dispanser ro'yxatidan o'chirilgan bemor uchun statistik talon	030-2-h/sh	A-5	blank	3 yil
11	Dispanser kuzatuv kartasiga (onko) nazorat kartasi	030-3-h/sh	A-5	blank	3 yil
12	Sil kasalligiga qarshi	030-4-	A-5	blank	3 yil

O'quv uslubiy qo'llanma

	muassasa kontingentini dispanser kuzatuv nazorat kartasi	h/sh			
13	Uydagi tug'ishni qayd etish jurnali	031-h/sh	A-4	jurnal	75 yil
14	Xudud pasporti	032-h/sh	A-4	daftar	2 yil
15	Oila pasporti	033-h/sh	A-4	daftar	2 yil
16	Muolaja xonasida qon namunalari olishni qayd qilish jurnali	034-1x/sh	A-4	jurnal	1 yil
17	Muolajalarni qayd etish jurnali	059-1-h/sh	A-4	jurnal	2 yil
18	Ambulator poliklinika muassasalariga, uylarga vrach qatnovlarining qaydlov bildirishnomasi	039-h/sh	A-4	blank	5 yil
19	SHifokor stomatologning stomatologiya shifoxonasi, bo'lim va xona ishlari yuzasidan yig'ma ma'lumoti	039-1-h/sh	A-4	blank	5 yil
20	Tibbiy ma'lumotnoma (chet el fuqarolari uchun)	043-h/sh	A-5	blank	3 yil
21	Chet elga ketayotganlar uchun tibbiy ma'lumotnoma	044-h/sh	A-5	blank	3 yil
22	Oila hamshirasining kundalik faoliyat jurnali	045-h/sh	A-4	jurnal	2 yil
23	Asbob uskunalarni qabul qilish va zararsizlantirish jurnali	047-1-x/sh	A-4	jurnal	2 yil
24	Xarbiy xizmatga chaqiriluvchining davolanish kartasi	053-h/sh	A-4	blank	5 yil
25	Sanatoriya kurort muassasalari uchun muolajalarni qayd etish	056-h/sh	A-4	blank	5 yil
26	Profilaktik emlashlar kartasi	063-h/sh	A-5	blank	5 yil
27	Emlashlarni qayd etish jurnali	064-1-h/sh	A-4	jurnal	3 yil
28	Sanator-kurort karta	072-h/sh	A-5	blank	3 yil

29	Davlat avtoinspeksiyasiga topshirish uchun tibbiy ma'lumotnoma	083-h/sh	A-5	blank	3 yil
30	Haydovchi va haydovchilikka daovogarlarni avtotransport va shahar elektrotransport boshqarishga yaroqliligini aniqlovchi tibbiy komissiya ko'rik jumali	083-1-h/sh	A-4	jumal	10 yil
31	Tibbiy ma'lumotnoma (maslahatchi shifokor mutaxassisning tibbiy xulosasi) Oliy o'quv yurtlari, litsey, kollejlarga kiruvchi abituriyentlar, sport maktabi va ishga kiruvchilar uchun to'ldiriladi.	086-x/sh	A-5	blank	3 yil
31	Tibbiy ma'lumotnoma (Maslahatchi shifokor mutaxassisning tibbiy xulosasi) sudyalik lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar uchun to'ldiriladi	086-1-x/sh	A-5	blank	3 yil
32	Tibbiy ma'lumotnoma (maslahatchi shifokor mutaxassislarning tibbiy xulosasi) qariyalar, nogironlik belgilangan shaxslar uchun to'ldiriladi	086-2-x/sh	A-5	blank	3 yil
33	Xomilador va tuqqan ayolning individual kartasi	111-h/sh	A-4	daftar	5 yil

Mavzuga doir test savollari:

1. QOSHP ni aholi soniga qarab kategoriyalari(barcha to'g'ri javoblarni belgilang)

aholi soni 1500 - 1 kategoriya, aholi soni 1500- 3500 - 2 kategoriya

aholi soni 2000 – 1 kategoriya

aholi soni 2000 -3500 – 2 kategoriya

aholi soni 3500 – 5000 – 3 kategoriya

2. O'zbekiston Respublikasida qishloq aholisiga birinchi bosqichda tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasa:

QOSHP

TMK

Viloyat kasalxonasi

Respublika kasalxonasi

3. Qanday tug'ilish ko'rsatkichlarini bilasiz:(barcha to'g'ri javoblarni belgilang)

nikohdagi serpushtlik, umumiy tug'ilish

nikohsiz tug'ilish

kech tug'ilish

erta tug'ilish

4. QOSHP da feldsher huquqlari:

bemorlarni o'ziga belgilangan kompetensiya chegarasida tashhislash va davolash, kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari va zaharlardan tashqari, dorilarga retseptlar yozish

hamshira bo'lmaganda ma'lumotnoma va mehnatga yaroqsizlik varaqasini berish va uni ro'yxatga olish, xo'jalik shartnomalarini tuzish

vrach yo'qligida vaqtincha mehnatga yaroqsizlikni ekspertiza qilish

5. QOSHP da akusherka huquqi:(barcha to'g'ri javoblarni belgilang)

o'zining kompetensiya chegarasida homiladorlarni tekshirish, tashhis qo'yish va muddatini aniqlash, bemorlarni davolash va tibbiy muolajalarni bajarish

boshqa tibbiy xarakterdagi hujjatlarni berish, feldsherga ko'rsatmalar berish

vrach yo'qligida punkt mudiri vazifasini bajarish

vrach yo'qligida vaqtincha mehnatga yaroqsizlikni ekspertiza qilish

6. QOSHPda patronaj haishiraning asosiy vazifalari:(barcha to'g'ri javoblarni belgilang)

bolalar orasida sog'lomlashtirish va profilaktik tadbirlarni o'tkazish

3 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida patronaj o'tkazish, raxit vagipotrofiyani profilaktikasi
sanitar nazoratni amalga oshirish
vrach yo'qligida kasallik varaqasini berish
boshqa tibbiy xarakterdagi hujjatlarni berish, feldsherga ko'rsatmalar berish

7. QOSHPda qanday darajali tibbiy yordam ko'rsatiladi :(barcha to'g'ri javoblarni belgilang)

vrachgacha
ixtisoslashgan vrachlik yordami
feldsherlik – akusherlik
hamma javoblar to'g'ri

8. Kasalxonaning asosiy tarkibiy qismi qaysi bo'lim:

qabul bo'limi
sanitar ishlov berish xonasi
operatsion blok
profilaktikasi

9. Statsionarda kelgan bemorga birinchi shoshilinch yordam qaerda ko'rsatiladi:

qabul bo'limida
izolyatorda
umumiy reanimatsiyada
jarroxlik va terapevtik bo'limlarda

10. Poliklinikada vrach ishining davomiyligi ko'rsating:

6,5 soat
8 soat
4 soat
5 soat

11. Qo'shilgan kasalxona bosh vrachining qanday muovinlari bo'ladi:

tibbiy masalalar, poliklinika, MXK bo'yicha
ma'muriy-xo'jalik qism, qabul qilish, davolash ishlari bo'yicha
tibbiy masalalar, ilm, o'quv ishlari bo'yicha
davolash va tarbiyaviy ishlar bo'yicha

12. Kasallik tarixining pasport qismi qayerda to'ldiriladi:

qabul bo'limida bemor bilan suxbatlashganda
bo'limda bemorning pasporti bo'yicha
vrach tomonidan bemor bilan suxbatlashganda
poliklinikada bo'limda bemor bilan suxbatlashganda

13. Uchlamchi profilaktikaga kiradi:

davolash mashqlari.

sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish

kasalliklarni erta aniqlash

tashqi muhit ifloslanishini kamaytirish

14. Birlamchi profilaktika nima:

sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish.

ijtimoiy reabilitatsiya

dinamikada kuzatish

kasalliklarning va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi

15. Ikkilamchi profilaktikaga kiradi:

kasalliklarni erta aniqlash

sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish

ekologiyani yaxshilash

tashqi muhit ifloslanishini kamaytirish

Amaliy mashg'ulot yangi pedagogik texnologiya bo'yicha «Akvarium» usulining qo'llanishi yordamida o'tkaziladi.

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular auditoriyaning o'rtasidan joy oladilar, go'yoki «baliq», qolganlar esa kuzatuvchi bo'ladi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10-15 minut davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa davradagi o'rtoqlarining to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval «baliqlar» versiyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o'z versiyalarini taklif etishadi, shu versiyalardan eng yaxshisining muallifi o'z versiyasini taklif etmagan talaba o'miga kichik guruhga o'tadi.

Usulning quyidagi afzalliklari mavjud:

- mavzu birgalikda muhokama qilinadi;
- metod mavzuni qismlarga ajratishga imkon beradi;
- talabalar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;
- mashg'ulot o'yin ko'rinishida o'tkaziladi;
- har bir talaba ishtirok etadi.

Mavzuni o'zlashtirish uchun «Davra subhati» usulidan ham foydalaniladi:

Aylana stol atirofida, o'rtaga tashlangan muammo yoki savol yuzasidan, ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar orqali o'quv mashg'uloti olib boriladigan pedagogik usul. Bu usul qo'llanilganda stol stullar doira shaklida joylashtiriladi har bir talabaning bir-biri bilan, „Ko'z

aloqasi'' o'ratib turushiga yordam beradi. Davra suhbatining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki davra suhbatida pedagog mavzuni boshlab beradi va talabadan ma'lum savol bo'yicha o'z fikr mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har-bir talaba o'z fikrini og'zaki bayon etadi. Javob berayotkan talabani barcha diqqat bilan tinglaydi, agar boshqalarni bu fikrga e'tirozi bo'lsa barcha fikrlar tinglanib bo'lgandan keyin muhokama davrida o' mulohazasini aytadi.

Yozma davra suhbatida ham stol stullar aylana shaklida joylashtirilib, har-bir talabaga konvert beriladi. Pedagog o'rta yechilishi lozim bo'lgan mommoni qo'yadi. Har-bir talaba konvert ustiga muayyan muammo bo'yicha unga berilgan savolni yozadi va „javob varaqa''sining biriga o'z javobini yozadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi talabaga uzatadi. Konvertni olgan keyingi talaba o'z javobini yozib keyingisiga uzatadi. Yakuniy qisimda barcha konvertlar yig'iladi va tahlil qilinadi.

Nazorat savollari:

1. OSHning uchastkasida ish faoliyatini tashkil etishning mezonlarini aytib bering?
2. Poliklinikadagi ro'yxatxonasining asosiy vazifalari qanday?
3. Poliklinikada vrachlarning ish faoliyatiga baho bering?
4. OSH ning epidemiyaga qarshi faoliyati nimalarni o'z ichiga oladi?
5. Qanday tibbiyot muassasalari birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatmaydi?
6. Qaysi ko'rsatkichlar aholini ambulatoriya-poliklinika xizmati bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi?
7. OSH uchastkasida nechta kishini tashkil etiladi?
8. Ayollar maslahatxonasining asosiy tarkibiy qismlari qanday?
9. Ambulatoriya poliklinikadan qanday farq qiladi?
10. Aholining ambulatoriya-poliklinika xizmati bilan ta'minlanganligi nima bilan ifodalanadi?
11. OSH vazifalarida akusherlik-ginekologik yordam qanday o'rin olgan?
12. Qanday bolalarga OSH tomonidan uy sharoitida xizmat ko'rsatiladi?
13. Ro'yxatxonada kimlar ishlashi mumkin?
14. Bemorlarni poliklinikada ro'yxatga olishning qanday tizimlari mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu.P.Lisisin «Sosialnaya gigiyena i organizasiya zdravooxraneniya» Problemniy leksii M. «Medesina»-1992,-512
2. T.I.Iskandarov, B.Mamatkulov «Sanitariya-statistikasi va ijtimoiy gigiyenik tadqiqot uslublari» Toshkent-1994, 200 bet
3. Jamoat sog'lig'ini saqlash «Yangi fan asoslari » I-qism Toshkent-2003, 463 bet
4. Jamoat sog'lig'ini saqlash «Yangi fan asoslari » I-qism Toshkent-2003, 500 bet
5. B.Mamatkulov Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish Toshkent-2013,576 bet

**Nuritdinova P.Sh., Hakimova X.X,
Israilova S.B, Dustova G.K**

**BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA YORDAMI.
AMBULATORIYA-POLIKLINIKA
MUASSASALARINING ISH FAOLIYATINI
TASHKIL QILISH**

O'quv uslubiy qo'llanma

Nashriyot litsenziya raqami: 143413

“SAMARQAND” nashriyoti

Mas'ul muharrir — Dildora TURDIYEVA

Musahhih — Anvar UMRZOQOV

Texnik muharrir — Akmal KELDIYAROV

Sahifalovchi — Dilshoda ABDIAXATOVA

Dizayner — Davron NURULLAYEV

“SARVAR MEXROJ BARAKA” bosmaxonasida chop etildi.

Guvohnoma raqami — 704756. Pochta indeksi 140100.

Samarqand shahar, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 3-uy.

Bosishga 27.09.2023 ruxsat etildi. Bayonnoma raqami: 2

Bichimi 60x841/16. “Times New Roman” garniturasida. 2,56 bosma taboq.

Adadi: 200 nusxa. Buyurtma raqami: 178/2023

Tel/faks: +998 94 822-22-87, e-mail: sarvarmexrojbaraka@gmail.com

